



“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” elektron ilmiy jurnali

№ 4 (4), oktabr-dekabr, 2021 yil

MAKTABGACHA TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA XIZMATI

VAFOYEV Bobur Rasulovich

TDIU, “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasи dotsenti,
iqtisod fanlari nomzodi

G’OFUROVA Dildora G’ofurovna

TDIU, “Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari” yo‘nalishi 2 kurs
magistranti



Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bbit.uz (Bolalar bog’chasida information tizim) tizimida bolalarni davlat va nodavlat bog’chalarida navbatga qo’yishga qaratilgan.bbit.uz tizimida har bir tarbiyalanuvchining to’liq ma’lumoti kiritiladi va boshqariladi. Bu tizimda har bir maktabgacha ta’lim tashkilotida alohida platformalar mavjud. bbit tizimi 2022-yilning 22-yanvarida joriy etildi bunga qadar 2018 yildan buyon Emis tizimida ishlab keltingan. EMIS – tizimi ham barcha darajalarida har bir tarbiyalanuvchilar to’g’risidagi ma’lumotlarni boshqarish uchun mo’ljallangan. Bog’cha bolalarni qamrovini boshqarish bo'yicha axborot tizimi hisoblangan. Bbit tizimi hozirgi kunda bolalar bog’chasi uchun yagona identifikatsiya tizimi bo’lib xizmat qiladi. OpenEMIS esa - ta’lim tizimlari to’g’risidagi ma’lumotlarni to’plash va hisobot berish uchun mo’ljallangan.

Kalit so’zlar. bbit.uz, OpenEmis, axborot texnologiyalari, bola qamrovi, tizimda navbat, intelektual imkoniyat, bulutli xizmatlar.



Kirish

Bugungi kunda Maktabgacha ta’lim vazirligining maktabgacha ta’lim yo‘nalishida axborot texnologiyalarini rivojlantirish markazi tomonidan tizimda axborot komunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish tashkil etildi.


O’zbekistonning bolalar bog’chasida **bbit.uz** tizimi 2022-yilning 1-fevralidan yo’lga qo’yilgani. Bu tizimda davlat bog’chalarida 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar qamrab olinsa nodavlat bog’chalarda 2 yoshdan 7 yoshgacha qamrab olinadi. Bundan tashqari **bbit.uz** tizimida mahallalarda qamrab olinmagan 6+ yoshli bolalarni bir yillik majburiy ta’lim yo‘nalishida 30

nafardan ko’p bo’lмаган тартибда har bir mahalla hududidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlar atrofida qamrab olinmagan bolalar berkitiladi va MTT tomonidan boshlang’ich sinf o’qituvchisi biriktirib haftaning 5 kuni 4 soatdan maktabga tayyorlanadi bu mashg’ulot bog’cha dasturidan farqi shundaki majburiy bir yillik ta’lim tarbiyalanuvchilari mavzuli rejalashtirish dasturidan ta’lim olmaydilar ilm yo’li dasturidan dars o’tildi.

Bbit tizimi orqali MTT pedagog xodimlari va tarbiyalanuvchilarning ota-onasi barcha ma’lumotlaga ega bo’lib boradilar. Bbit tizimiga kirib tanishib chiqamiz.



Keyingi qadamda [id.egov.uz](#) oynasi ochiladi. Har bir MTT rahbariga maktabgacha ta'lrim tashkiloti bo'limi tomonidan berilgan login parol teriladi.



MTT ga tegishli login parol terilgandan keyin asosiy baza ochiladi va o'ng tomonda tizim menyusi ko'rinish turadi

4-rasm. bbit.uz oynasi

Ilovalardan foydalanish uchun kerakli ilovani tanlaymiz.

Tizimdag'i har bir ilova alohida imkoniyatlarga ega. Masalan: tarbiyachi bo'limini tanlansa bog'chadagi bolalarning to'liq ma'lumot ko'rindi.

5-rasm. Tarbiyalanuvchilar oynasi

Tarbiyalanuvchilar ma'lumotidan bolalar boshqariladi. bolalar 3 yoshda bog'chaga qabul qilingan bo'lsa 3-4 yoshli kichik guruuhga joy-lashtiriladi. Bola 5 yoshga to'lgandan so'ng tizimga kichik guruuhga kirib bola ism familiyasi topiladi va katta guruuhga o'tkaziladi. Katta guruuh bolalari 5-6 yoshni tashkil etadi. bbit tizimini afzalligi shundaki kichik guruhdagi bola tug'ilgan yili tizimga kiritilgandan so'ng bolani katta guruuhga ota-

onasi iltimosi bilan ham kiritib bo'lmaydi chunki bbit tizimga guruuh yoshi chegaralab qo'yilgan. Bu albatta bola yoshidan kelib chiqib mashg'ulotlarning samarali tashkil etili-shiga qaratilgan.

Bog'cha xonalarining sig'imiga qarab bolalar guruhlarda 20 nafardan 30 nafargacha qabul qilinadi. Tizimdag'i bo'sh o'rinn bor guruhlar ko'rinish turadi. Masalan:

Nº	Tarbiyalanuvchilar guruhi	Talim turi	Sig'imi	Guruhlardagi bolalar	Bo'sh joy	Tarbiyachi FIO	Amal
/839400	bir yilik majburiy ta lim 1	Годовая подготовка (1 йиллик) [от 5.5 до болшине 6 лет]	30	29	1	Tahrirlash	
5773450	mektebga tayyorlov 1-6 yosh	6+ [больше 6 лет] {код-111}	25	19	6	Tahrirlash	
5773300	katta guruuh 1-6 yosh	5-6 [от 5 до 6 лет] {код-110}	25	20	5	Tahrirlash	
5772800	orta guruuh 1-3-4-5 yosh	Много возрастной (аралаш) {код-115}	25	20	5	Tahrirlash	
5772650	kichik guruuh 1-3-4-5 yosh	Много возрастной (аралаш) {код-115}	25	24	1	Tahrirlash	


6-rasm. bbit tizimi tarbiyalanuvchilar oynasi

Tizimga tarbiyalanuvchi bolalar ma'lumotidan tashqari MTT da ishlaydigan pedagog xodimlar ma'lumotlari ham kiritilgan.

Nº	Lavozim	FIO	JSHSHIR	Stavka	Maqomi	Amal
92145		SHAXNOZA RAXMANOVA AMONOVNA	40104662630189	To'lliq	Rabogaet	Amal


7-rasm. bbit tizimi xodimlar oynasi

abit tizimining qulayliklari shundaki ota-onalar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga bormasdan ham farzandini bog'chaga onlayn tarzda navbatga qo'yishlari mumkin. Masalan: Buning uchun birinchi navbatda my.gov.uz tizimga kirishimiz kerak.




8-rasm. my.gov portaliga kirish

Portaldan xizmatlar bo'limidan bog'chaga navbatni tekshirish tanlanadi



9-rasm. my.gov portalida bog'chaga navbatni tekshirish

Navbat tekshirib ko'rildigandan so'ng bo'sh joy bo'lsa bolaning yoshiga qarab ota onasi guruhga onlayn ariza tashlab bola ma'lumotini navbatga joylashtiradi.



10-rasm. my.gov portalida bolani bog'chaga joylashtirish

Bolaning ariza navbati kelganda ota-onada tomonidan kiritilgan qo'l telefoni raqamiga sms xabar keladi. Agar ota-onada bolaga chiqqan yo'llanma bilan 14 kun ichida MTT ga murojaat qilmasa yo'llanma o'z kuchini yo'qotadi.


Yo'llanma chiqqan tarbiyalanuvchilar ismi sharifi tizimdag'i "QABUL" bo'limi tanlansa oyna ochiladi va yo'llanmasi chiqan bolalarni qabul qilib guruhlarga joylashtiriladi.

The screenshot shows a list of children under the 'Qabul' status on the bbit.uz website. The table includes columns for Navbat ID si, Tarbiyalanuvchilar guruh, F.I.O., Guvohnoma, and Amal. The 'Amal' column contains two buttons: 'Qabul qilish' (Accept) and 'Rad etish' (Reject). A red arrow points to the 'Qabul qilish' button for the first child listed.

Navbat ID si	Tarbiyalanuvchilar guruh	F.I.O.	Guvohnoma	Amal
255320700	o'rta guruh 1 3 4 4 5 yosh	RASULOV RASULBEK BEHZOD O'G'LII	I-QDN#1118138	<button>Qabul qilish</button> <button>Rad etish</button>
255320650	o'rta guruh 1 3 4 4 5 yosh	BAXRIKULOV DIYORBEK DILSHOD O'G'LII	I-QDN#10924/1	<button>Qabul qilish</button> <button>Rad etish</button>
255320600	o'rta guruh 1 3 4 4 5 yosh	SOBIRJONOV BEKJON O'BEKOMICH	I-QDN#1092638	<button>Qabul qilish</button> <button>Rad etish</button>
255320500	o'rta guruh 1 3 4 4 5 yosh	AKRAMOVA NAVBAI IOR FAYVOZ QIZI	I-QDN#1103139	<button>Qabul qilish</button> <button>Rad etish</button>
255320450	kichik guruh 1 3 4 4 5 yosh	YULDOSHEV XUSHNUJBEK SHAXZOD O'G'LII	I-QDN#1078125	<button>Qabul qilish</button> <button>Rad etish</button>

11-rasm. bbit.uz tizimida bolani bog'chaga qabul qilish

Ota-onalarning uyda va ishda turib bolalarning bog'chadagi mashg'ulotini nazorat qilish uchun bbit tizimida kamera ilovasi ham yaratilgan. MTT joylashgan hudud bo'linmalariga kunlik bolalar va xodimlar davomati ko'rinishi uchun "DAVOMAT" ilovasi ham mavjud.



12-rasm. bbit.uz tizimida davomat

Bolalar bog'chasida kunlik taomnoma bilan ham ota-onalar bbit tizimi orqali tanishib bo'rishi mumkin.

2018-yildan 2022 yanvar oyigacha bbit tizimi o'rniqa OpenEMIS dasturida ishlab kelingan. OpenEMIS dasturi haqida quydagilar amalga oshirilgan.

UNESCOning dasturuy mahsuloti hisoblangan OpenEMIS O'zbekistonda joriy etish bo'yicha hamkorlikda ishlar olib borilgan. Bunda jahon standartlariga mos axborot texnologiyalarini joriy qilish, pedagog tarbiyachilari bog'cha yosh bolalarni qamrovini tashkil etishi yo'lga qo'yilgan edi.


Hozirgi kunda markaz xalqaro tajribalarga tayani OpenEmis platformasida ishlar amalga oshirapti. OpenEMIS tizimi xalq ta'lif tizimida pedagoglarning ma'lumotidan boshlab o'quvchilarning baholashigacha o'z ichiga olgan bo'lsa, maktabgacha ta'lif tizimida EMIS platformasi

"Emis.id.Egov.uz" sayti orqali O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha maktabgacha ta'lif tashkilotlarning ma'lumotlarini o'ziga mujjasamlashtirib faoliyat yuritgan. Bu dasturiy ta'minotning asosiy funk-siyasi, har bir maktabgacha ta'lif tashkilotini ma'lumoti, xodimlar haqidagi ma'lumot, ta'lif tashkilotidagi guruhlar soni, guruhlardagi bolalarning ism familiyasi, yashash manzili, tarbiyachining yoshi kesimidagi ma'lumotlar yaqqol ko'rinish turadi.

Bu tizim Respublikaning qaysi hududida bo'lishdan qattiy nazar qaysi maktabgacha ta'lif tashkilotida nechta tarbiyachi faoliyat olib boruyapti yoki necha nafar tarbiyalar uchun guruhlar songacha to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Bu platforma Maktabgacha ta'lif vazirligining rasmiy web sahifasiga joylashtirilgan.


Portal orqali kirish



13-rasm. Emis.id.Egov.uz kirish oynasi

Maktabgacha ta'limga vazirligining Web sahifasi orqali hududlar kesimida maktabgacha ta'limga tashkilotlarining ma'lumoti kerak bo'lganida yoki bolalar qamrovini nazorat qilish imkonini ham yaratilgan. Emis tizimida kirib ma'lumotlarni ko'rib borish bog'cha bolalari ota-onalariga ham ruxsat berilgan. Bunda ota-ona bog'cha yoshida bo'lgan farzandini Davlat xizmatlari markaziga murojat qilib farzandini ota-ona o'zi tanlagan maktabgacha ta'limga tashkilotida navbatga qo'yiladi.

Ota-ona login paroli bilan tizimga kirilganida MTT kartasi



14-rasm. Emis.id.Egov.uz MTTlar xaritasi

Foydalanuvchi berilgan huquqga ko'ra u mttlar ro'yxatinidan bitta MTT ro'yxatini ko'rishi mumkin. Barcha MTT ro'xatidagi ma'lumotni tizimga login: Ota-ona | parol: ota-ona bo'lib kirganda ko'rish mumkin. Birinchi kirish: Birinchi marta kirganda sistema maktabgacha ta'limga sayti <http://mdo.uz/directory> va yagona davlat xizmatlari partali <https://my.gov.uz> ga bog'langan. Navbatga qo'yilgan tarbiyalanuvchining nechanchi navbatda ekanligi qog'oz shaklda ota-onaga taqdim etiladi. Navbat varaqasi tanlangan maktabgacha ta'limga tashkilotida keltirib beriladi. Navbatga turgan bolaning yo'llanmasi chiqishini nazorati ta'limga tashkiloti metadistiga yuklatiladi. Yo'llanma chiqqandan so'ng yagona davlat xizmatlari partalidan ota-onalarga qo'l telefoniga sms xabar boradi.

"Biz faqat bolalar yoki ta'limga muassasalarini to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini saqlash uchun mo'ljalangan ibtidoiy platformani yaratishni

Birinchi kirish birinchi marta kirishda sistema parol o'zgartirishini so'raydi. Agar parol o'zgartirilmasa uni faqat yuqorida turuvchi tashkilotlar (tuman, viloyat boshqarmalari va vazirlik) orqali o'zgartirsa bo'ladi.

Foydalanuvchi shaxsiy kabinetiga kirganda panelning chap qismida foydalanuvchi (xodim) profili va xodim bilan bog'liq tashkilot haqida ma'lumot bo'ladi.

xohlamadik. Maktabgacha ta'limga vazirligi tahlil qilish, boshqarish, monitoring va baholash vositasiga muhtoj. Bizning mutaxassislarimiz EMISdan nafaqat strategik rejalashtirish va ta'limga dasturlari natijalarini kuzatish, balki mavjud vaziyatni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan rejalarni tuzatish uchun ham foydalanadilar" (2018 yil 18-19 iyul kunlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limga vaziri Agrepina Shin va YuNISEFning Evropa va Markaziy Osiyo mintaqaviy direktori Afshan Xon o'rtasidagi uchrashuv).

Xulosa

Yuqoridagi ikki tizimni ham ko'rib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak OpenEMIS dasturi asosan muktab ta'limga moslashtirilgan tizim hisoblanadi. Undagi ilovalar baholash mezonlari ham kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Bbit tizimida faqat bolalar bog'chasiga moslashitirilgan. Bolalarni navbatga qo'yilishi ikki tizimda

ham mavjud edi. OpenEMIS dasturida yo'llanmasi chiqqan 3 yosh bolani katta guruh yani 5-6 yoshli bolalar guruhidagi joylashtirish imkonini ham bo'lgan. Ammo bbit tizimida guruhlardagi bolalar yoshiga qarab joylashtiriladi masalan 3 yoshli bolani katta guruhda joylashtirish cheklab qo'yilgan. bbit tizimini afzaligi shundaki

bolalarning kunlik taomnomasi bilan ota-onatanihib boradi OpenEMIS dasturida TAOMNOMA ilovasi mavjud emas. bbit tizimida kunlik davomat va kamera bo'limlar ham kiritilgan bu bo'limlar orqali MTTda korrupsiyaga yo'l qo'yish holatlarning yuzaga kelishi bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-52 sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi".
2. Jenni Arliz's article "Technology Has Changed The Way Of Learning".

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi portali
2. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi veb sayt
3. <http://www.zyonet.uz> . - axborot ta'lim portali
4. bbit.uz saytiga kirish
5. My.gov.uz
6. id.egov uz